O’zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish

agentligi direktori A.Burxanov

raisligida o’tkazilgan yig’ilish

4-SONLI BAYoNNOMASI

2024 yil 28 iyunь **Toshkent shahri**

Raislik etuvchi: **A.Burxanov**

Agentlik direktori

Direktor o’rinbosarlari: D.Raximov, U.Tuxtasheva, U.Mavlyanov

Tarmoq rahbarlari: A.Ergashev, U.Berdiqulov, U.Daulanov, U.Abruev, D.Raxmatov, Z.Boysinov va boshqalar

Kotib: J.Beshimov

Kun tartibidagi masala:

I. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining 4 yillik faoliyati va kelgusidagi vazifalarni muhokama qilish.

Yig’ilishni raislik etuvchi kirish so’zi bilan ochib, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni ta’kidlab o’tdi.

Agentlik tashkil etilganidan buyon o’tgan 4 yillik davr mobaynida korruptsiyaga qarshi kurashish masalasi davlat siyosati darajasiga olib chiqilib davlat boshqaruvida byurokratiyani kamaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, davlat xizmatlarini ko’rsatish sifatini yaxshilash, raqamlashtirish borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirildi, 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib sohaning huquqiy asoslari yaratildi, «O’zbekiston — 2030» strategiyasi va Korruptsiyaga qarshi kurashish bo’yicha 2023-2024 yillarga mo’ljallangan davlat dasturi bilan maqsadli ko’rsatkichlar belgilab berildi.

Shunga asosan, davlat dasturlari va boshqa hujjatlarda belgilangan topshiriqlarni ijrosini samarali tashkil etib, o’z vaqtida bajarish lozimligi aytib o’tildi.

Shundan so’ng, Agentlikning oldida turgan vazifalarni yuzasidan Tizimli tahlil va prognozlashtirish yig’ma bo’limi yetakchi inspektori J.Beshimov, Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta’minlash boshqarmasi boshlig’i A.Ergashev, Korruptsiyani oldini olish va «komplaens-nazorat» tizimini joriy etish boshqarmasi xodimlari M.Madraximova va M.Rasulovlarning hisobotlari hamda takliflari eshitilib, muhokama etildi.

Qayd qilinganlarga asosan yig’ilish:

QAROR QILADI:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining o’rinbosarlari (D.Raximov, U.Tuxtasheva, U.Mavlyanov), Tizimli tahlil va prognozlashtirish yig’ma bo’limi (J.Beshimov) va barcha tarkibiy tarmoq rahbarlariga:

1.1. Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishish jarayonlarini yakunlab, yuqori organlarga kiritish va qabul qilishdagi muammolarni bartaraf etish choralari ko’rilsin.

1.2. “Manfaatlar to’qnashuvi to’g’risida”gi qonun tadbiq etiladigan davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek davlat xizmatchilari lavozimlari ro’yxati va soni aniq belgilansin.

1.3. Korruptsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasida majburiy o’qitilishi lozim bo’lgan sub’ektlarning doirasi aniqlanib, Yillik reja grafikka kiritilishi ta’minlansin.

1.4. Manfaatlar to’qnashuvini hisobga olish reestri, mavjud manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi xabarnoma va ehtimoliy manfaatlar to’qnashuvi to’g’risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini ishlab chiqib, Agentlik direktorining buyrug’i bilan tasdiqlash va Adliya vazirligidan ro’yxatdan o’tkazilishi ta’minlansin.

1.5. Manfaatlar to’qnashuvini aniqlash bo’yicha «E-anticor.uz» elektron platformasiga zarur bazalarni integratsiya qilish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilsin.

1.6. Davlat xizmatchilarining manfaatlar to’qnashuvi bilan bog’liq qonunchilik hujjatlari bo’yicha bilim va ko’nikmalarini onlayn test sinovlari orqali baholash qaysi platforma orqali amalga oshirilishiga aniqlik kiritish va test sinovlari belgilangan muddatlarda o’tkazilishi ta’minlansin.

1.7. Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo’lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro’yxatini yanada kengaytirish bo’yicha takliflar ishlab chiqib, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilsin.

Raislik etuvchi A. Burxanov

Kotib J. Beshimov